



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

2023-yil. 4-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН


**Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ABDULLA QODIRIY TAVALLUDINING 129 YILLIGIGA



Ushbu sonda



TAHLIL

“Boburnoma”da shimoliy
Tojikiston toponimlarining
ifodalanishi

12
bet



TILSHUNOSLIK

Hyponymic relationship in
words in semantics

25
bet



TADQIQOT

Ishtixon va Payariq
tumanlaridagi
toponegizlarning lingvistik
xususiyatlari

34
bet



НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

Текст как отражение
культурных ценностей

64
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2023-yil.
4сон.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDSHESHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2023.30.04. da topshirildi. Offset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharli bosma tabog'i 6.0, «Arial» garniturasini, 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ____ Adadi 4213 nusxa. Bahosi kelishilgan narxida.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

- Yorqinjon Odilov.** Olamning lisoniy manzarasi va til idioetnikligi 3

METODIK TAVSIYA

- Klaraxon Mavlanova.** Ona tili darslarida matn tahririga oid majmuaviy ish turlari 5

ILGOR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

- Xolida G'ulomova.** Yordamchi so'zlarni o'qitish metodikasi 7

- Gulnaz Jarilkasinova.** Kursantlarning axborot-metodik ta'minot bo'yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi 9

TAHLIL

- Zilola Rozikova.** Effective methods of teaching English to young children 10

- Mo'minjon Turdibekov.** "Boburnoma"da shimoliy Tojikiston toponimlarining ifodalanishi 12

- Firuza Murodova.** O'zbek hujatchiligi tarixi 14

- Hoshimjon Ahmedov.** Navoiy ijdioda tasavvuf g'oya va timsollari talqini 16

- Elmurod Nasrullahov.** "Saddi Iskandariy" dostoni olim talqinida 18

- Dilnoza Buronova.** Ernest Seton-Tompson hayoti va badiiy uslubining o'ziga xos xususiyatlari 20

- Dilshod Nasriddinov, Mirzakhoja Jobborov.** Fantasy and reality in literature 21

TILSHUNOSLIK

- Kamola Anorboyeva.** Importance of listening and note-taking in students' language learning process 24

- Nasiba Jumayeva** Hyponymic relationship in words in semantics 25

TARJIMASHUNOSLIK

- Saida Sultanova.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tarjimonning kasbiy muloqoti malakalarini shakllantirish masalasi 26

MULOHAZA

- Muqaddas To'raboyeva.** Ona tili ta'limida nutqiylar kompetensiyaning mazmun va mohiyati 28

TADQIQOT

- Saadat Kambarova.** O'quvchilarning obrazli va konceptual tafakkurini rivojlantirishda tizimli yondashuvlar 30

- Otabek Xidirov.** O'zbek tili korpusida so'z birikmalarini sintaktik teglash 32

- Oybek Gadayev.** Ishtixon va Payariq tumanlaridagi toponegizlarning lingvistik xususiyatlari 34

- Shahnozxon Komolova.** Nemis va o'zbek tillaridagi paremiyalarda zidlikni ifodalovchi tushunchalar

- va ularning lingvosotsiomadaniy xususiyatlari 36

- Gulruh Bahodirova.** Sohaviy leksika tadqiqi 38

- Zarina Abdullayeva.** Perifraza klassifikatsiyasi olimlar talqinida 40

KICHIK TADQIQOT

- Yorqin Nurmatov.** Xitoy tabobati tibbiy atamalari tarjimasidagi ba'zi muammolar 42

- Aziza Zaripova.** Chet tillarni o'qitishda innovatsion usullar 43

- Durdona Mahkamova.** O'zbek terminologiyasi taraqqiyotida jadidlarning o'rni 45

- Bayon Doniyorova.** Role of multimedia in Russian lessons in primary schools 47

METODIKA. O'PIYT

- Zulhukumor Isakjanova, Monika Sharjeva, Tatjana Shorina.** B.Suteev. «Как я ловил рыбу» 49

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

- Matliuba Mirhanova.** Понимание спонтанной речи 53

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

- Aziza Bedilova, Saodat Ismailova, Nilufar Bedilova.** Экономическая терминология – объект

- исследований учёных-лингвистов 56

- Al'fina Galimova.** Англоязычная лексика в современной лингвистике 58

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

- Bekkenbaev Raimov, Aйдана Бекмуратова.** Этапы работы с английскими фразеологизмами,

- характеризующими эмоциональное состояние «fear» (страх), на практических занятиях в вузе 60

- Zebiniso Murudullaeva.** Современные требования к использованию мультимедийных платформ

- в преподавании английского языка 61

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

- Lola Kabulova, Salauat Atajanova.** Проблемы переводческих трансформаций при передаче каракалпакских

- реалий на русский язык 63

- Gulyxon Akramova.** Текст как отражение культурных ценностей 64

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

- Ol'ga Shevtsova.** Репрезентация понятийной категории «количество» в современном русском языке 66

- Nargiza Alimova.** Преподавание мировой литературы для филологического направления 69

- Nargiza Madaminova.** Структурные особенности композитов-существительных в творчестве Н.С.Гумилёва

- и А.А.Ахматовой 71

- Эльдар Гиздулин.** Атрибуты постапокалиптической пандемийной среды в романе

- Эмили Сент-Джон Мандел «Станция Однажды» 73

- Шахло Алимарданова.** О соотношении явлений вариативности и языковой дифференциации 76

ВНЕАУДИТОРНАЯ РАБОТА

- Leila Tagieva.** Изучаем наследие самородка национальной литературы 78

bog'laydi. Xalqning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, qarashlari, urf-odati, kasb-kori, xo'jalik faoliyatiga oid ma'lumotlar joy nomlarida saqlanib qoladi. Yuqorida keltingan misollarimiz, ayrim joy nomlarining izohi bunga yorqin dalildir. Joy nomlari xalq aql-zakovatining

mahsuli, ma'naviy qadriyatlarning ajralmas bir qismidir. Afsuski, Shimoliy Tojikistondagi ko'plab tarixiy nomlar ijtimoiy tuzum taqiqlarining qurboni bo'lmoqda. Joyga nomni xalq beradi. Har qanday nom kishilar ijodi, tafakkurining mahsuli. Uni boricha asrash lozim.

Foydalanimgan adaabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchilar: P.Shamsiyev., S.Mirzayev. – Toshkent: O'zFA, 1960.
2. Qorayev S. Toponimika va tarixiy geografiya. Joy nomlari xalq tili va ma'naviyatining nodir merosi nomli Respublika ilmiy-amaly konferensiya materiallari. – Navoiy, 1998.
3. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
4. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978.
5. Nafasov T. O'zbek nomnomasi. – Qarshi: Nasaf, 1993.
6. Nizomov A., Rahimova G., Rasulova N. Toponimika. – Toshkent: Sharq, 2013.
7. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari. – Toshkent: Fan, 1965.
8. Мирзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974.

Firuza MURODOVA,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi*

O'ZBEK HUJJATCHILIGI TARIXI

"Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir" (A.Qodiriy)

Tarixiy silsilalarga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyatining paydo bo'lishi ibtidoi jamoa tuzumining yemirilishi hamda davlatchilikning vujudga kelishiga sabab bo'lganiga guvoh bo'lamic. Deyarli bir vaqtning o'zida ijtimoiy zarurat tufayli til bilan yonma-yon yozuv ham paydo bo'ldi. Turkiy xalqlar yaratgan turk-run, so'g'd, oromiy, uyg'ur va uzoq tarixga ega bo'lgan ko'plab yozuvlar tufayli eng qadimgi davrlardan ajoddalarimizning yaqin-yiroq mamlakatlar bilan olib borgan siyosati, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari natijasida turli yozishmalar, yilnomalar, badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar, turli hujjatlar, farmonlar va qonunlar yaratildi. Bu hujjatlar o'z davri haqida ma'lumot beruvchi, davlatchilikning ma'lum strukturalarini ko'rsatuvchi manbalar sifatida qadrlidir. Bunday hujjatchilik va til tarixida mavjud qoidalarga asoslangan manbalarni hisobga olmasdan, ularni tarixiy tajribasidagi ijobjiy va salbiy jihatlarini chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, hozirgi hujjatchilik va til tarixinining mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish va baholash mumkin emas.

Hujjatchilik tarixiga nazar solsak, dunyoning bizgacha yetib kelgan eng qadimiy qonunlari miloddan avvalgi 1792–1750-yillarda yashagan Bobil podshosi Xammurapi tomonidan tuzilgan. Xammurapi qonunlarida quzdorlik tuzumi huquqining xarakterli belgilari aks etgan bo'lib, Qadimgi Sharq huquqining qimmatli yodgorligi sanaladi. Xammurapi qonunlari 282 mod-

dadan iborat bo'lib, huquqning ayrim sohalariga tegishli sud protsessi, mulk huquqi, mulkning turli ko'rinishlari, yerga egalik, nikoh va oila, meros huquqi va boshqa masalalarni o'z ichiga olgan. Unda xususiy mulkchilik, ayniqsa, quzdorlik qattiq himoya qilingan.

Xammurapi qonunlaridan ham qadimroq manba mi-loddan avvalgi 2112–2094-yillarda shoh Ur-Nammu tomonidan tuzilgan qonunlar majmuasidir. Ushbu majmua hozirgi vaqtgacha ilm-fanda ma'lum bo'lgan eng qadimgi qonun sanaladi. Ur-Nammuning huquqiy kodeksi dastlab, shubhasiz, uch asrdan keyin Xammurapi qonunlarida yozilganidek, tosh stellaga o'yib yozilgan. Ta'kidlash kerakki, hech bo'lmaganda ba'zi jinoyatlar, masalan, jismoniy jarohatlar, Xammurapi yoki yahudiy qonunlarining keyingi qonunlarida bo'lgani kabi, o'lim yoki jarohatlash bilan jazolanmaydi. Jinoyatchi jabrlanuvchiga jinoyatning og'irligiga ko'ra kumush bilan tovon to'lashi kerak edi. Ur-Nammu sulolasi insonparvar va madaniyatli jamiyat tuzishni yoqlab chiqqan. Qonunlar muqaddimasidan ma'lum bo'lishicha, Ur-Nammu armiya va soliq tizimini qayta tashkil etgan, bir qator eng xarakterli byurokratik suiiste'molliklarni yo'q qilgan.

Hujjatchilik borasidagi bu an'ana turk xoqonlarining "Qonunnoma"sida ham davom ettirilgan bo'lib, unda Buyuk turk xoqonligining davlatni idora qilish tarib-qoidalari, turli mansab egalarining vazifalari, soliq solish va uni to'plash tartibi, harbiy yurishlar o'tka-

zish, qo'zg'ololnarni bostirish qoidalari bayon etilgan. Xondamirning "Qonuni Humoyun", Ro'zbexonning "Suluk al-muluk" kabi noyob tarixiy manbalari ham turkiy xalqlar tarixida hujjatchilik an'analari juda qadimgi davrlarda boshlanganligidan dalolat beradi. Qayd etib o'tilgan tarixiy manbalaridan tashqari xoqonliklar, shohliklar, xonliklar, amirlik vabekliklarda yuritilgan farmonlar, bitimlar, arznomalar, yorliq, tilxat, qarznomma, guvohnoma kabi ko'plab hujjatlarning turli-tuman yozuvlarda tayyorlangan noyob nusxalari, namunalari ham bizgacha yetib kelgan.

Mayjud manbalar orasida VII asr oxiri va VIII asr boshlarida Sug'd podsholigi davriga tegishli 80 ga yaqin noyob (Panjakent yaqinidagi Mug' tog'ida joylashgan qadimgi qasr xarobalaridan topilgan) hujjatlar Sug'd davlatida ish yuritishning ahvoldan darak bersa, 800 ga yaqin hujjatlarni qamrab olgan "Vasiqalar to'plami" 1588–1591-yillarda Samarcanddag'i tarixiy voqelik, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yaqqol aks ettiradi.

"Sug'd arxivi"dagi sug'dcha nikoh guvohnomasi 710-yilning 25-martida yozilgan bo'lib, unda turk zodagoni Uttakinning sug'd ayoli Dug'dgunchaga uylanishi rasmiylashtirilgan hamda kelin bilan kuyovning vazifa, burch va majburiyatli bayon etilgan. Shuningdek, yer xarid qilish, tegrimonni ijaraga olish, xarajatnomasi va o'zaro yozishmalardan iborat bir qator nodir hujjatlar So'g'd podsholigi davrida xalq hayotining qanday bo'lganligini o'rganish uchun muhim manba bo'ladi.

"Vasiqalar to'plami"dagi hujjatlarda esa meros mulknii taqsimlash, bolalarni hunar o'rganish uchun shogirdlikka berish, korxonalar, savdo do'konlari, yer-suv hamda uy-joy, mol-mulkni sotish, sotib olish yoki ijaraga berish, qullar mehnatidan foydalanish, qullarni ozod etish, taloq, sulh kabi munosabatlar o'sha davr huquqni nazorat etuvchi mutasaddilar – qozilar tomonidan tasdiqlangan.

Mayjud hujjatlarning hosilasi o'laroq, keyinchalik Mavarounnahrda eng muhim va butun dunyoga tarqalib, shohlar va sarkardalar, davlat arboblari uchun dasurulamal vazifasini o'tab kelgan noyob manba Amir Temurning "Temur tuzuklari" majmuasi bo'ldi. Asar o'rta asrlar davlatchiligining asosiy qonuni sifatida mashhur bo'lib, unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiyalarning maoshi, boj va soliq to'lash tartib-qoidalari, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, vazirlar va boshqa mansabdorlarining toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqa shu kabi muhim qoidalari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, o'sha davrda inson huquqini nazorat va muhofaza etuvchi mutasaddilar – qozilar tomonidan tasdiqlangan meros mulknii taqsimlash, bolalarni hunar o'rganish uchun shogirdlikka berish, korxonalar, savdo do'konlari, yer-suv hamda uy-joy, mol-mulkni sotish, sotib olish yoki ijaraga berish, qullar mehnatidan foydalanish yoki ularni ozod etish, oila, nikoh, taloq, sulh kabi qator huquqiy munosabatlar aksini topgan vasiqalar to'plamlari ham fikrimizni asos-

laydi. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan boshqarilgan yurtlarda davlat ishlari turkiy (o'zbek) tilda yuritilgan. Boburning "Boburnoma" asari bunga dalil bo'la oladi. Asarda kitobat ishi va yozuv amaliyoti, hujjatchilik ishlari bilan bog'liq butun boshli atamalar tizimi qo'llangan. Masalan, asarda "yozishma, maktub" ma'nosida xat (arab. خط), ardadāšt (fors. داشت عرضه) atamalari ishlataligan: *Sultân Husayn mîrzâniñ bu xâtârları müjib-i nâ-umidlik boldî* (BN. ۲۰۱). Bobur o'z asarida kitâbat (arab. كتابة) atamasini ham ishlataladi va Alisher Navoiy bilan bo'lgan yozishmasini, xatini ana shunday ataydi: *Bu ikkinçi navbat Samarqandnî alyanda, 'Alî-Şer-beg tirig edi. Bir navbat menjä kitâbatî ham kelip edi. Men ham bir kitâbat yibârip edim, arqasida türkî bayt aytip, bitip yibârip edim. Javâb kelgûnçä, tafriqa-vu yavyâ boldî* (BN. ۱۷۰).

Xonliklar davrida ham turkiy tilda bitilgan hujjatchilik an'analari davom etdi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklaridagi ijtimoiy ahvol, har bir xonlikning o'ziga xos siyosati, mol-mulk, soliq ishlari, yer va suv bilan bog'liq muammolar, jinoyatchilarga jazo berish, boshqa davlatlar bilan aloqa qilish kabi bir qator masalalar yuritilgan xatlar, turli yozishmalar, farmonlar, hujjatlar shular jumlasidan. Afsuski, bu jarayon chor Rossiyasi Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan to'xtab qoldi, an'analalar unutildi. Hujjatchilik tanazzulga yuz tutdi. Mamlakatning boshqaruv nazorat organlarida barcha hujjatlar rus tilida yuritishga o'tkazildi. Ammo jadidchilik namoyandalari bunga qo'l qovushtirib qarab turmadidi. O'z tili, yozuvini himoya qila oldi. XX asr boshlarida hujjatchilikning davom etishi va rivoj topishi bevosita Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Kitobat ul-atfol" (Bolalar uchun yozuv kitobi) kitobi bilan bevosita bog'liq. Asar 1908-yili Samarcanda nashr qilingan. Inqilobgacha ikki marta chop etilib, ikkinchisi 1914-yilda qayta chiqarilgan. U o'zbek va fors tillarida yozilgan.

"Kitobat ul-atfol" kitobi Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida usuli jadida maktabalariiga hujjatchilik va til qoidalari o'rgatish maqsadida yaratilgan yangi usulidagi uslubiy qo'llanma hisoblanadi. U XX asr boshida Turkiston o'lkasida hujjat yuritish va til sohasida islohotlarni amalgalashish nuqtasi nazaridan tuzilgan.

Qo'llanmada hujjat yuritish qoidalari o'z aksini topgan bo'lib, ya'ni ota va onaning bolalarga munosabatlari; ota-ona oldidagi burchi; bolalarning huquqlari; xat yozmoqning qoidalari va shartlari; mahalliy hokimiyatga ariza yozish; ma'lumotnomalar; tasdiqnomalar; mamlakat fuqaroligi uchun va xorijiy pasport berish; shahodatnomalar; tilxat kabi hujjat namunalarining yozilish tartibi va qoidalari o'z aksini topgan. Ayni paytda muallif kitobni nashr etishdan maqsadini ham aytib o'tadi. Ya'ni: "Biz ham shul qoidag'a binoan majmuai kitobat va insho" unvonida avlodni vatan uchun rasmiy va xususiy hamda Turkistonning shariy va milliy mahkamalarina ma'mul (amaldagi) barcha vasoyiq (vasiqalar), hujjatu va bil-jumla musulmon volosno'yи upraviteli (nohiya mudiri) huzurinda bo'ladigan doznoniya, protokul, qabohatnomasi va rasmiy har nav maktublarni muxtaviy (o'z ichiga olgan) bir necha juzdan murakkab bir asar tahrir va

nashr etmoq amalinda eduk. Shu maqsadg'a ushbu "Kitobat ul-atfol" nashri ila shuru' etdim. Matlabimizning asosi bolalar va barcha talaba toqatincha, tavriddi lison (til birligi), ta'mim (yoyish) va tafhimi (tushuntirish) mak-tuboti turkiya va forsiyadan iboratdir".

Bundan tashqari, o'zbek hujjatchilik tarixida til, uning odobi, axloqi, ish yuritish sohasidagi qoidalari mavjud asarlar ichida "Kitobat ul-atfol" alohida ajralib turadi. Unda tinish belgilaring ham o'ziga xos nomlanishlari o'rinn egallagan. Jumladan, so'roq belgisini – alomati savol; undov belgisini – alomati nido, taajjub xitob; tire – ikki so'zni farq qilaturg'on alomat; barobar – ikkisi bir pog'onada; vergul – ozgina turmoq uchun; ikki nuqta –

bayon va tafsil uchun; ko'p nuqtalar – notamom so'zlar; so'zning oxiri yoki vaqfi – tom alomati kabi atamalar bilan berilganligining guvohi bo'lamiz.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshqa sohalar singari hujjatchilik, ish yuritish hujjatlari tizimi ham rivoj topdi. Ko'rinish turibdiki, hujjatchilik tarixi, u bilan bog'liq an'analar zamonlar va davrlar o'tishi bilan o'zgargan bo'lsa-da, dolzarbligini hali-hanuz yo'qotgani yo'q. Jamiyat rivojlanchani sari hujjat turlari ham kengayib, u bilan bog'liq terminologiya, ularning yozilish uslubi, tili, nutqiy sifatlari ilmiy tadqiqini kutayotgan masalalardandir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent: O'zME, 2020.
2. Лосев В.И., Кузнецов Т.В. Основы делопроизводства. – Москва, 1975.
3. Vasiqalar to'plami. XVI asrning ikkinchi yarmi Samarqand oblastidagi yuridik dokumentlar. – Toshkent: Fan, 1982.
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ochun, 2021.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2018.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.

Hoshimjon AHMEDOV,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ona tili va adabiyot ta'limi kafedrasini dotsenti, f. f. n.*

NAVOIY IJODIDA TASAVVUF G'OYA VA TIMSOLLARI TALQINI

Tasavvuf she'riyatida ishq, yor, jonon, may, mayxona, soqiy, sog'ar, piri mug'on, mug'bachcha kabi ko'plab ramzlar uchraydi. Oybek to'g'ri ta'kidlaganidek, "...tasavvuf she'riyat uchun falsafiy bir mavzu bo'lib, shoirlar orasida darvishlari bo'lgani kabi, hayotda so'fiylikdan uzoq turgan, lekin tasavvufga bir nav falsafa, bir nav hurfikrlik kabi qaragan, o'z ijodida tasavvuf asoslarini ifodalashga qiziqqan" [1: 204] shoirlar ko'p bo'lgan.

Alisher Navoiy mutasavvuf shoir sifatida o'z ijodida eng ko'p qalamga olgan mavzu – ishq, ya'ni ilohiy ishq. Alisherning uch-to'rt yoshidayoq yod olgan she'ri ham ilohiy ishq haqida edi. Bu she'r mutasavvuf shoir Amir Qosim Anvorniki bo'lib, bu so'fiyona g'azalning matlasi quyidagicha:

*Rindaemu oshiqemu, jahonso'zu joma chok,
Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok?*

Mazmuni:

Rindlarmiz, oshiqlarmiz, jahonni kuydiruvchi yoqvayronlarmiz. Sening g'aming davlati bilan ekanmiz, dunyo fikri (g'ami)ning nima hojati bor? [2: 47]

Alisher Navoiyga umri davomida katta ta'sir etgan asar tasavvufga bag'ishlangan Farididdin Attorning

"Mantiq ut-tayr" she'riy dostonidir. Navoiy uni bolalik chog'idayoq yod olgan:

*Uylakim eldin uzilda ulfatim,
Ul kitob erdi anisi xilvatim.
Xalq rasmi so'zlaridin qiyil-u qol,
yetsa tab'img'a yetar erdi malol.
Oqibat ishq ayladi shaydo meni,
O'yla mash'uf etti bu savdo meni.*

Bolalik chog'idayoq bu murakkab falsafiy-majoziy asarni o'qish, tushunish, anglash oson kechmagan, zero, ota-onal Alisherga uni o'qishni ta'qiqlagan, ammo shoir uni yod olgan edi.

Navoiyning tasavvufga bag'ishlangan "Lison ut-tayr" dostonidan boshqa Navoiyning barcha asarlarida ham so'fiyona g'oyalari tadrijiy rivojlantirilgan. "Shoir asarlarida shunday mukammallik borki, agar o'quvchi istasa, ikki satrdangina iborat fardidan tortib, qariyb o'n to'rt yarim ming misrali "Saddi Iskandariy" dostonigacha har bir manzumasining butuni va bo'laklari aro uzvii bog'liqlik, go'zal bir uyg'unlik borligini aniqlay oladi. Chunki Navoiy ijodi – uyg'un bir tizim. Ana shu yagona tizimga sig'maydigan yoxud unga zid fikr ilgari surilgan